

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## SHOIR TILAK JO`RANING OBRAZ YARATISH MAHORATI

**Shahnoza Giyazova**

*BuxDU magistranti,*

*Buxoro Prezident maktabi o`qituvchisi*

[\*giyazovashahnoza@gmail.com\*](mailto:giyazovashahnoza@gmail.com)

Adabiyot – insonga uning o`z qalbini oyna kabi tutuvchi vositadir. Shunday ekan, badiiy adabiyotga, ayniqsa, she`riyatga oshnolik har bir shaxs qalbining tub-tubida joylashgan ezgu tuyg`ularni uyg`otib, ma`naviy qiyofasini shakllantirib, komillik sari ildam borishiga quvvat beradi. Zamonaviy o`zbek she`riyati haqida so`z borganda, uning badiiy taraqqiyoti, mavzu ko`lamining kengayishida yuksak badiiy mahorat egasi, xalq e`tirofi bilan aytganda, “o`zbek sanduvochi” - Tilak Jo`ra ijodining munosib hissasi bor. Bu ta`rif shoirga bejizga berilmagan. Tilak Jo`ra o`zbek adabiyotiga yuborilgan tabiatning tuhfasidir, chunki u qalamga olgan har bir she`rga murojaat qilganingizda qalbingiz quyosh bo`lib yorishadi, bug`doy hosilidek saxiylikka yo`griladi, daryo bo`lib mavjlanadi, yomg`irda qolib tozalanadi, bulbul nolasidek shirin orzularga burkanadi, sahro kabi kengayadi. Ba`zan o`zingizni izg`irinda qovjirab qolgan g`ozadek nochor his qilsangiz, ba`zan ildizlari yer bag`riga keng quloch yozgan daraxtdek kuch-quvvatga to`la holda his qilasiz. Shoir ijodi mana shunday inson ko`nglini junbushga keltira oladigan badiiylikka boy nolalardir.

Tilak Jo`ra ijodining badiiyati haqida gap ketganda, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilovning sevimli shogirdi haqidagi ushbu fikrlari shoir she`riyatining samimiy va o`ziga xosligini dalillaydi: “...uning she`rlari o`ziday sodda va mazmunli edi. U she`rni ko`z-ko`z qilmas, bozorga olib chiqmas, neki yuragi buyursa, shuni yozardi”(2,7). Mana shu xususiyati tufayli ham uning she`rlarini o`qiganimizda qalbimizga tabiiy iliqlik kirib keladi:

Bir navo oqadi –

Hayotbaxsh;

Bir daryo oqadi –

Mavjli;

Bir orzu kezadi –

Ezgulik.

Bir inson yashaydi –

Umrboqiy;

Bu navo,

Bu daryo,

Bu zot –

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

O`yi, so`zi, ishi ezgu

Har HAZRATI INSON!(2,18)

Ushbu she`rdagi misralar qanchalik sodda bo`lmasin, lekin unda inson hayotining mazmuni aks eta olgan. Misralardagi so`zlar soni, ularning joylashirilishi, qofiya she`r qoidalariga mos emas, ammo bu shakl va uslub she`rning ohangdorligiga, u ifodalayotgan mazmunga xalaqit bermagan. Bir qarashda oddiygina so`zlarning takroriga o`xshaydigan bu jumalarda ulkan mohiyat bor. Tilak Jo`ra hammani lol qoldirish uchun ajabtovur so`z qidirib o`tirmaydi. Biz nutqimizda ko`p foydalanadigan so`zlarni shunday mahorat bilan joylashtiradiki, natijada quyma satrlar hosil bo`ladi. Inson bu hayotda daryoday kuch-qudratga to`lib, kuyday barchaga yoqimli va shirinso`z bo`lib yashashi, aytgan har bir so`zi, qilgan ishlari, qalbidagi pokiza orzulari va uni amalga oshirish yo`lidagi harakatlari ezgulikka xizmat qilishi, xalqqa manfaat keltirishi kerakligi, shundagina inson nomiga munosib bo`lishi kabi yuksak g`oya bir diltortar ohangday so`zlar qa`riga singdirib yuborilgan.

Tilak Jo`raning yana bir ustoz tarjimashunos olim va shoir G`aybulla as-salom ham shogirdining iste`dodini yuksak baholaydi: “Qiyofada quyosh aks etganini ko`rganmisiz? Shoir Tilak Jo`ra she`rlarida xalq qiyofasi aks etardi”(2,6):

O`rimdan song dalada  
Sovuradi chol xirmon –  
Donning oltin patiga  
Ko`milgan moviy osmon.  
Ko`kdan tanga sochganday,  
Don to`kilar nurlanib.  
Chol deydi, shamol, hay-hay,  
Qolmasa-da turlanib.(2,51)

Ushbu she`rda mehnatkash xalqimizning hayot tarzi jonli manzara hosil qilgan. Dalada hosilni o`rish, undan keyin bug`doy donlarini xas-xashakdan, somon parchalaridan tozalash, natijada moviy osmonning “oltin pat”larga ko`milishi, aslida esa changga botishi chiroyli pardalarda tasvirlangan. Dala mehnati qanchalik mashaqqatli, azob-uqubatli, og`ir bo`lsa-da, bu jarayon she`rda dehqonga – cholga ulug`vorlik bag`ishlagan. She`rni o`qiganda lirik qahramonga nisbatan qalbimizda achinishni emas, aksincha, faxrni tuyamiz.

Tilak Jo`raning o`zbek she`riyati takomiliga qo`shgan hissasini o`rganar ekanmiz, benazir qalam sohibi Muhammad Yusufning bu ijodkor haqidagi quyidagi misralarini e`tiborsiz qoldira olamymiz:

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Men uni tug`ilmay turib bilardim,  
Murg`ak chog` jannatda yuzin ko`rganman.  
Tegirmonchilikni orzu qilardim,  
Unga havas qilib shoir bo`lganman. (3,97)

M.Yusuf ushbu she`ri orqali Tilak Jo`ra bilan ustoz-shogirdlik munosabatlarida ular tug`ilmasidanoq hayotda uchrashish taqdiriga yozilganligiga - ilohiy bog`lanish borligiga ishora qilmoqda. O`zbek sanduvochi ko`plab shoirlar, adabiyotshunos va tilshunos olimlarning sevimli shogirdi bo`lishi bilan birga, endigina adabiyot bo`stoniga qadam qo`yayotgan yosh ijodkorlarning ham motivatori, rahnamosi edi. Uning shogirdlari qatoriga Eshqobil Shukur, Qo`chqor Norqobil, G`ulom Mirzo, Sirojiddin Sayyid, Salim Ashur kabi adabiyotimizning bugungi kundagi zabardast ijodkorlarini qo`shib qo`yishimiz mumkin.

Tilak Jo`ra ijodida mavzuviy rang-baranglik she`rxonni sehrlab qo`yadi, chunki u qaysi mavzuda qalam tebratmasin, o`zini tabiatning haqiqiy oshig`i sifatida ko`rsatadi. Tuyg`u va fikr uyg`unligi tufayli siz shoirning yangi, o`zi kashf etgan, shu bilan birgalikda, yashash uchun o`zlikdan, pokiza qalbdan boshqa narsa talab etilmaydigan beg`ubor va sodda olamiga g`arq bo`lasiz. Uning she`rlarida inson tabiatning bir qismi ekanligi aniq va jonli tasvirlar tufayli yaqqol namoyon bo`ladi. Go`yo barcha go`zalliklar tabiat qo`ynida yashirinib yotibdi, faqatgina uni Tilak Jo`ra topa oladi! U o`z she`rlarida yoshlik, ota-ona, vatan, do`stlik, buyuk tariximiz va ajdodlarimiz, qahramonliklar, vafo va sadoqat kabi insonga quvvat beruvchi, irodasini mustahkamlovchi, ma`naviyatini yuksaltiruvchi azaliy va abadiy tuyg`ular hamda olijanob fazilatlardan tortib, yomg`ir, bulut, qor, daryo, bug`doy, bo`zto`rg`ay, qarg`a, tuya, ot, hatto tokning nartigacha qalamga olib, ular orqali o`z fikrini, maqsadini ifodalashda bu obrazlar bo`yniga katta mas`uliyat yuklaydi.

Dastlabki tadqiqotlarimizda adibning vatan, ota-ona, bahor haqidagi betakror she`rlari badiiyatiga e`tiborimizni qaratgan edik. Ushbu maqolada esa erk mavzusida yaratilgan she`rlari tahliliga to`xtalamiz. Shu o`rinda shoir Miraziz A`zamning Tilak Jo`ra haqidagi quyidagi xotiralarini tahlilimizning debochasi sifatida keltiramiz: “Tilak Jo`raning shoirlik sifati chakana emas. U jahonning ozodlik kuychilari maktabidan chiqqan, xalqimizning erki va hurriyati uchun joni og`rib, mustaqillikka erishish yo`lida ishlagan va kurashgan e`tiqodli vatandosh, imoni but shoir edi. Oddiy turmush voqealaridan umummilliy va umuminsoniy xulosa chiqarishgacha ko`tarila biluvchi qalamkash edi...”(2,9) Ha, shoirning kamtarligi ham, buyukligi ham shunda. U oddiy detallarga ham ulkan ma`no, vazifa yuklay oladi. Ijodkorning “Ona niyati” she`ri orqali ushbu fikrlarni dalillaymiz:

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ot choptirib chiqding uyingdan,  
Ot choptirib qaytgin, ilohim!  
Qo`lingdagi jiloving kabi  
Erking bo`lsin o`zingda doim.

She`r 5 banddan iborat, barmoq vaznida. 4+5 shaklida turoqlangan. Avvalo, birinchi bandning tahliliga to`xtalsak. Bu she`rda tilga olingan ot, jilov, uy kabi so`zlarning tanlanganiga e`tibor qarataylik. Ot – kuch-qudrat ramzi bo`lib, insonning yoshlik, navqironlik davriga ishora. Uy esa vatan. Erkinlikning otning jiloviga o`xshilishiga sabab bu narsa har bir kishining qo`lida, o`ziga tegishli, birovga berib bo`lmaydigan va agar berib qo`ysa, otidan ayrilgani kabi kuch-qudratidan ham mahrum bo`lishiga ishoradir. Behbudiyning “Haq olinur, berilmas” gapi orqali ham bilamizki, erkinlik, hurlik muqaddas tuyg`u, uni yo`qotish esa falokatdir. Mustamlakachilik, mutelik davrida xalqimiz boshiga ne-ne kulfatlar yog`di, vatanimizning asl o`g`lonlari, yo`q qilindi. Bu davrlardan ancha ilgari ham tarixda davlatlar, xonliklar o`rtasidagi urushlar vaqtida ne-ne manaman degan bahodirlar janglarda jasorat ko`rsatib, ammo vaqti kelganda boylik, mansab evaziga yurtiga xiyonat qilgani haqida ko`plab lavhalar bor. Buni Mirzo Ulug`bekning ishongan sarkardasi Sulton Jondor Abdulatif bilan bo`lgan urushda shiddatli jang paytida o`z navkarlarini olib, nokas o`g`il tarafiga o`tib, podshohni tang ahvolda tashlab ketgani, pul va amalga qul bo`lib, oxiri o`z boshiga yetganiga tarix guvohdir. Aynan shu lavha O.Yoqubovning “Ulug`bek xazinasi” romanida juda ta`sirli aks ettirilgan. Yuqoridagi bandda lirik qahramon – ona o`z farzandidan mana shunday tubanliklardan yiroq yurishini o`tinib so`ramoqda. She`rning 1-qatorida “Ot choptirib chiqding” birikmasining 2-qatorida “ot choptirib qaytgin” shaklida takrorlanishi “qanday bo`lsang, shundayligingcha - o`zligingcha qol” ma`nosidagi ona o`tinchini ifodalagan.

Mayli, meni o`ylama, bolam,  
Topganingni sarf qil o`zingga.  
Lek birovga bo`lmasin qaram,  
Nam tegmasin sira tizingga.

2-bandda esa bolasi uchun butun hayotini bag`ishlagan, ammo evaziga hech narsa kutmayotgan, bolasini har doim o`zidan-da yaxshi yashashini xohlaydigan, jonkuyar, haqiqiy o`zbek onasi siymosi gavdalangan. Ona farzandi uni o`ylamasa ham, onasi haqida qayg`urmasa ham rozi, lekin erksiz, g`urursiz, nomussiz yurganiga chidolmaydi. Birovga qaram bo`lish g`urur, or-nomusni yo`qotish bilan teng.

Ulg`aytirdim polvonim deya,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Toliqqanda darmonim deya.

Shamol kabi yelib borasan,

Olisdagi osmonim deya.

3-bandda esa farzandiga yurak qo`rini berib tarbiyalagan, undan katta umidlarni kutayotgan munis onani ko`ramiz. Lirik qahramon bola parvarishi yo`lidagi mehnatlarining puchga chiqishidan xavotirda. Shuning uchun unga bo`lgan cheksiz mehrini ifodalash maqsadida eng sara so`zlar bilan alqayapti.

Osmoningni olib qayt, bolam,

Qolib ketma osmon vaslida.

Otang qurgan bu kichik hujra

Osmondan ham kengdir, aslida.(2,44)

4-banddagi osmon – bu insonning beg`ubor orzulari. Ular shu qadar ko`pki, shuning uchun samoga mengzalyapti. Ona o`g`lining ushbu maqsadlariga yetish yo`lida adashib ketishidan xavotirda. Chunki hayot ham turli so`qmoqlardan, to`qnashuvlardan, kurashlardan iborat. Orzular, maqsadlar qanchalik go`zal bo`lmasin, baribir inson uchun o`z uyi – vatani eng xavfsiz va xotirjam joy. Vatan ostonadan boshlanadi deb bejizga aytilmagan. Agar farzand o`z ota-onasiga, oilasiga mehr-muhabbatli bo`lsa, vataniga ham sadoqat bilan xizmat qiladi. Hamma onalar ham mana shunday farzandni tarbiyalashni xohlaydi va umri davomida shunga harakat qiladi. Ushbu she`rda erk, g`urur, mardlik, mehr-oqibat tuyg`ulari bilan birga vatanparlik ruhi ham singib ketgan.

She`rning 1-bandi 5-band sifatida takror keltirilgan. Bu esa aynan erk so`ziga yana qo`shimcha vazifa yuklaydi. She`r 1977-yilda yaratilgan. Endi esa bu satrlarni yaratilgan davr, unda yashayotgan shaxs va she`riyat nuqtayi nazaridan tahlil qilaylik. Hammamizga ma`lumki, Tilak Jo`ra ijodining eng gullab-yashnagan davrlari aynan shu yillarga, xalqimizning sovet hukumati ostida qaram bo`lgan vaqtiga to`g`ri keladi. Bundan esa ijodkor qalbi qanchalar qiynalgan, o`z erkidan mahrum xalqiga juda ko`p achingan. Lekin isyon ko`tarib, dod-faryod qilishdan ham foyda yo`q. Chunki mustamlaka tuzumning ko`plab yovuzliklarga qodir ekanligini A.Qodiriy, Cho`lpon, Fitrat kabi xalqimizning fidoyi farzandlarining ayanchli taqdiri orqali bilamiz. Shuning uchun ham “Ona niyati” she`rida lirik qahramon - ona obrazi orqali aslida o`z dardlarini, erk, ozodlikka, hurriyatga bo`lgan kuchli ishtiyoqini ifodalamoqda. Mana shunday katta ahamiyatga ega bo`lgan fikrlarni, murakkab tushunchalarni oddiy va samimiy tarzda tasvirlash yuksak badiiy mahoratdir.

Tilak Jo`raning tasavvur olami keng va rang-barang. Uning ijod olamiga kirib qoldingizmi, undan chiqib ketolmaysiz, shu olamda bir umrga qolib ketasiz. Chunki u

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qaysi mavzuda qalam tebratmasin, she’rlari orqali har doim o’z muxlisiga – she’rxonga ezgu g’oyalar, ulkan maqsadlarni hamroh qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Jo’ra. Ruhiyat (she’riy to’plam). Toshkent, 1990;
2. T.Jo’ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent - 2011;
3. M.Yusuf. Saylanma. Sharq nashriyoti, Toshkent – 2019;
4. A.Ulug’ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017;
5. U.Hamdani. Badiiy tafakkur tadriji. Yangi asr avlodi. Toshkent – 2002;
6. U.Hamdani. Yangi o’zbek she’riyati. Toshkent – 2012.